# Faqat yaxlit paygʻom

Doktor Noji Ibrohim Arfaj

Bagʻishlov Haqiqatni yurakdan va ixlos bilan izlayotganlarga.Ongli aql egalariga.

# Kitob mavzulari

Oʻqish oldidan savollar

Mavzuning mohiyati haqida

Muqaddas Kitob (Eski ahd)da Alloh tavhidi

Muqaddas Kitob (Yangi ahd)da Alloh tavhidi

Qur’oni Karimdagi Alloh tavhidi

Xotima

Soʻnggi eslatma

Muallifning boshqa ishlari va kitoblari

# Oʻqish oldidan savollar:

Yaxlit paygʻomdan maqsad nima?Muqaddas Kitob yaxlit paygʻom haqida nima deydi?Qur’oni Karim yaxlit paygʻom haqida nima deydi?Sizning bundan keyingi fikringiz?

Mavzuning mohiyati haqida

Odam alayhissalomdan soʻngra tarix davomida bashariyatga yagona paygʻom yetkazildi.Odamlarga ushbu paygʻomni eslatish va ularni Toʻgʻri yoʻlga qaytarish uchun Yagona va Haq Iloh Odam, Nuh, Ibrohim, Muso, Iyso va Muhammad alayhimus-solatu vas-salomlarni ushbu yagona paygʻomni yetkazish uchun yubordi. U paygʻom:Haq iloh — yagonadir. Shu bois Ungagina ibodat qilingiz!Haq va Yagona boʻlgan ilohgina — Ma’buddir!U Nuh, Ibrohim, Muso, Iyso va Muhammad alayhimus-solatu vas-salomlarni ushbu paygʻomni yetkazish uchun yubordi:"Silarning ilohingiz yagonadir va sizlar Ungagina ibodat qilingiz!"Alloh biz bilgan va bilmagan matonatli paygʻambarlarni bir necha vazifani ado etishlari uchun yubordi. Shulardan ba’zilari quyidagilardir:Ilohiy vahiyni qabul qilish va uni oʻz qavm va izdoshlariga yetkazish.Odamlarga tavhid-yakkaxudolik va ibodatni Allohga xolis qilishni oʻrgatish.Odamlar Alloh sari eltajak yoʻllarida oʻrnak olishlari uchun qavliy va amaliy namuna boʻlish.Izdoshlarini Allohdan taqvo qilish, Allohga itoat qilib, Allohning farmoyishlariga rioya qilishlariga yoʻllash.Izdoshlariga din ahkomlari va gʻozal axloqlarni oʻrgatish.Osiylar, budaviy va boshqalarga yoʻl koʻrsatish.Odamlarga oʻlimlaridan soʻngra qayta tirilishlari, Qiyomat kuni qilgan amallariga koʻra sarhisob qilinishlari, Allohga iymon keltirgan va solih ishlarni qilgan odamning mukofoti jannat, Allohga shirk keltirib, osiy boʻlgan odamning makoni jahannam ekani haqidagi xabarni yetkazish.Mazkur paygʻambar va elchilarni yagona ilohgina yubordi.Koinotdagi barcha narsa Yaratguvchi Allohning borligini tilga olib, Uning yaktoligiga guvohlik berishmoqda.Holbuki, Alloh taolo Koinot va Koinotdagi odamzot, hayvonot va hasharotlarning, oʻlim, foniy va mangu hayotning yaratguvchisidir.Yahudiy, nasroniy va musulmonlar qovlidagi muqaddas kitoblar Allohning borligi va yaktoligiga guvohlik berishadi.

Haqiqatni tadqiq qilayotgan odam iloh soʻzining ma’nolarini Muqaddas kitob va Qur’onda oʻz mavzulari va ihlos bilan oʻrganar ekan, Alloh taoloning oʻzigagina xos va boshqa soxta tangrilar sherik boʻla olmaydigan nodir sifatlarini ajrata oladi.

Ushbu sifatlarning ba’zilari quyidagilardir:Haqiqiy iloh — Xoliqdir, yaratilgan emasdir.Haqiqiy iloh — sanoqsiz emas yagona va sherigi yoʻqdir, ota ham va farzand ham emasdir.Alloh — maxluqotlarning tasavvuridan pok boʻlib, bu dunyoda koʻzlar uni koʻra olmaydi.Alloh — oʻlmas azaliy boʻlib, maxluqotlaridan birontasiga hulul qila olmas va ulardan birida mujassam boʻlmas.Alloh —

maxluqotlariga muhtoj bo‘lmagan behojat, mustaqil bo‘lib, Uning otasi, onasi, rafiqasi va farzandi yo‘qdir. U, taom, sharob va biron kimsaning ko‘magiga muhtoj emasdir.Alloh yaratgan maxluqotlar esa, Allohga muhtojdirlar.Alloh buyuklik, kamolot va go‘zallik sifatlari bilan sifatlanganki, bu sifatlarda maxluqotlaridan birontasi Unga o‘xhsamas va sherik bo‘la olmas.Ushbu sifat va me’yorlarni (bulardan boshqa Alloh yakto bo‘lgan sifatlarni) soxta tangrilarni yo‘q qilish va ulardan voz kechishda iste’mol qilishimiz mumkin.

Kelinglar, endi, yuqorida zikr qilingan "Yaxlit payg‘om"ga tadqiq qilish va Muqaddas kitob hamda Allohning yakka ekanini ta’kidlaydigan oyatlardan ayrimlarini iqtibos qilish uchun ortga qaytaman.

Ammo bundan ilgari, men sizlarga ushbu eslatmani aytib qo‘ymoqchiman.

Ayrim nasroniylar: Allohning yagona ekani ochiq. Biz ham yagona tangriga ishonamiz. Bu yerda qanday muammo bor?, deb savol berishlari mumkin.

Haqiqat esa, nasroniy dini haqida ko‘p o‘qiganim, tadqiqotlar olib borganim va nasroniylar bilan birga olib borgan uzoq suhbatlarim natijasida shuni aniq o‘rgandim-ki, ular tasavvuridagi "Alloh" quyidagi narsalarni o‘z ichiga oladi:Alloh — otadir.Alloh — o‘g‘ildir.Alloh — Muqaddas ruhdir.Oddiy haqiqat va sog‘lom mantiq bu mavzuda izlanayotgan odamni o‘sha nasroniylarga quyidagi savollarni berishga undaydi:Sizlar uchta tangriga ishora qilgan bir paytingizda "Alloh — yagonadir!", deyishingizning ma’nosi nima?Alloh uchta narsaga hulul qilganmi yoki uchta bitta zotga hulul qilganmi (ya’ni: 1=3 mi, yoki 3=1 mi)?Bularga qo‘shimcha o‘laroq, ayrim nasroniylarning e’tiqodlariga ko‘ra, bu uch tangrining quyida ochiqlaganimizga muvofiq farqli vazifalari, vujudlari va ko‘rinishlari bor:Alloh ota — Yaratguvchidir.Alloh o‘g‘il — Xaloskordir.Alloh Muqaddas ruh — Maslahatchi (E’zozlangan)dir."Iyso — Allohning o‘g‘lidir yoki tangridir yoxud tangrining bir bo‘lagidir" deya gumon qilish Tavrot va Injil oyatlari qaror qilgan ma’nolarga butunlay ziddir. Chunki ular "Allohni bu dunyoda hech kim ko‘ra olmaydi" deya bayon qilganlar."Sizlar Allohning tovushini aslo eshita olmaysizlar va yuzini ko‘ra olmaysizlar!".(Yuhanno Injili 5:37)."Uni hech kim hech qachon ko‘rmadi va hech kim uni ko‘ra olmas!".(Timofeyga birinchi maktub 6:16)"Meni ko‘rgan odam tirik qolmaydi".(Chiqish 33:20)

Men bu va bundan boshqa oyatlarga ko‘ra rostgo‘ylik va omonat bilan shu savolni bermoqchiman: "Iyso — Allohdir!", degan kimsalar bilan, "Allohni hech kim ko‘rmagan va tovushini eshitmagan", deya ochiqlagan oyatlar o‘rtasini qanday muvofiqlashtira olamiz?

(Iyso alayhissalom payg‘ambar bo‘lgan davrda) yahudiylar, Iyso alayhissalomning oilasi va Iyso alayhissalom izdoshlari (ayrim nasroniylar "Allohning o‘g‘li" deb e’tiqod qilishgan) Iyso Masihni ko‘rib, uning tovushini eshitmadilarmi?

Tavrot va Injil Alloh taoloni hech kim ko‘ra va eshita olmasligini aytsayu, biz, shaxsini ko‘rib, tovushuni esitishgan Iyso alayhissalomni Tangri va Tangrining o‘g‘li deya e’tiqod qilayotgan odamlarni ko‘rsak?!

Bu yerda Alloh haqiqatiga taalluqli xufyona sir yo‘qmikin?

Albatta, Tavrot, Allohning so‘zini keltirar ekan, buning aksini ta’kidlamoqda:"Darhaqiqat, Men — parvardigorman. Bu yerda mendan boshqa iloh yo‘qdir. Men sirni gapirmadim va maqsadim ham xufyona emas. ... Darhaqiqat, men — Allohman va haqiqatnigina gapiraman. Men, to‘g‘ri bo‘lgan narsanigina e’lon qilaman".(Isaya 45:19).Unday bo‘lsa haqiqat nima?Marhamat qilib, avvalgi oyatnitakror va takror o‘qib, bir oz tafakkur qilib ko‘ring.

Ushbu kitobchani insofli, mavzuga asoslangan tanqidiy o‘qishingiz va oyat va nasslar haqida tafakkur qilganingizdan so‘ngra fikr va nuqtai nazaringizga mutanosib keladi degan umidda, keling, birgalashib, Muqaddas kitob va Qur’oni Karimda bayon qilingan Alloh haqidagi tadqiqotimizni boshlaylik!

Mavzularni rioya qilganim bois, dalillarni ta’liqsiz keltiraman va avvaldan aytilgan hukm yoki tasavvurlar bulg‘amagan mavzu hamda e’tibor haqida tafakkur qilishingizni umid qilib qolaman.

# Muqaddas kitob (Eski ahd)da Haq va Tanho bo‘lgan Alloh:

"Ey Isroil, eshit: Ilohimiz bo‘lgan Parvardigor — yagona Parvardigordir".(Ikkinchi amrlar 6:4)."Yagona Alloh biz uchun hayot ruhini yaratib, bizga rizq bermadimi?".(Malaxiya 2:15)."Meni bilishingiz va Menga iymon keltirishingiz hamda mening Tangri ekanimni bilishingiz uchun... Mendan avval tangri bo‘lmadi, mendan keyin ham tangri bo’lmaydi. Mengina Parvardigorman! Mendan boshqa xaloskor yo‘qdir!"(Isaya 43: 10-11).Men Avvalu Oxirman. Mendan boshqa iloh yo‘qdir! Menga o‘xshagan kimsa bormi?(Isaya 44:6)."Men — Parvardigor va Mendan boshqa iloh yo‘q emasmi? (Men) g‘amxo‘r va xaloskorman. Bu yerda Mendan boshqasi yo‘qdir!".(Isaya 21:45)

Siz bunga o‘xshash oyatlarni ham eslay oldingizmi?

# Muqaddas kitob (Yangi ahd)da Haq va Tanho bo‘lgan Alloh:

Mangu hayot — Seni tanho Haq tangri, Iysoni esa Sen yuborgan Masih deya bilishlaridir".(Yuhanno Injili 17:3)"Alloh — ilohingizga ibodat qilingiz va xizmatlarni Ungagina taqdim etingiz!"(Matto Injili 4:10)."Ey Isroil tingla: Ilohimiz bo‘lgan Parvardigor — yagona Parvardigordir. Darhaqiqat, Alloh — yagonadir va Undan boshqasi yo‘qdir".(Markos Injili 12: 28-33)."Bas, Alloh — yagonadir. Alloh bilan odamlar o‘rtasidagi vositachi ham yagona bo‘lib, u — odamzot Iyso Masihdir".(Timofeyga birinchi maktub 5:2)"Odamlardan biri Iysoga kelib: Solih hojam, mangu hayotga erishishim uchun qilishim kerak bo‘lgan solih amal nimadir?, deb so‘radi. (Iyso) unga: Nega meni "Solih" deya chaqirding? Bu yerda yagona Solih bordir. U ham bo‘lsa Allohdir, deb javob berdi".(Matto Injili 19:16-17 (Qirol Jeyms nusxasi)).

(Matto Injili 4:10).

"Ey Isroil tingla: Ilohimiz bo‘lgan Parvardigor — yagona Parvardigordir. Darhaqiqat, Alloh — yagonadir va Undan boshqasi yo‘qdir".

(Markos Injili 12: 28-33).

"Bas, Alloh — yagonadir. Alloh bilan odamlar o‘rtasidagi vositachi ham yagona bo‘lib, u — odamzot Iyso Masihdir".

(Timofeyga birinchi maktub 5:2)

"Odamlardan biri Iysoga kelib: Solih hojam, mangu hayotga erishishim uchun qilishim kerak bo‘lgan solih amal nimadir?, deb so‘radi. (Iyso) unga: Nega meni "Solih" deya chaqirding? Bu yerda yagona Solih bordir. U ham bo‘lsa Allohdir, deb javob berdi".

(Matto Injili 19:16-17 (Qirol Jeyms nusxasi)).

Siz Alloh taoloning uchta emas,

yagona ekanini ta’kidlagan boshqa oyatlarni ham bilasizmi?

Qur’ondagi yagona va haq bo‘lgan Alloh:

((Ayting: U Alloh — yagonadir. Alloh — behojatdir. U — tug‘magan va tug‘ilmagan. Unga biron kimsa teng emasdir)).(113-sura, 1-4).((Mengina ilohman! Bas, menga ibodat qilingiz!)).(21-sura, 25).(("Alloh uchtaning uchinchisidir", deganlar kofir bo‘ldilar. Yagona ilohdan boshqa iloh yo‘qdir. Agar ular gapirayotgan gaplaridan to‘xtamasalar, ichlaridagi kofirlarni alamli azob qamrab oladi))(5-sura, 73).((Darhaqiqat, ilohingiz yagonadir)).(37-sura, 4).((Alloh bilan birga boshqa iloh ham bormi? To‘g‘ri gapirayotgan bo‘lsangizlar hujjatingizni keltiringlar!)).(27-sura, 64).

(113-sura, 1-4).

((Mengina ilohman! Bas, menga ibodat qilingiz!)).

(21-sura, 25).

(("Alloh uchtaning uchinchisidir", deganlar kofir bo‘ldilar. Yagona ilohdan boshqa iloh yo‘qdir. Agar ular gapirayotgan gaplaridan to‘xtamasalar, ichlaridagi kofirlarni alamli azob qamrab oladi))

(5-sura, 73).

((Darhaqiqat, ilohingiz yagonadir)).

(37-sura, 4).

((Alloh bilan birga boshqa iloh ham bormi? To‘g‘ri gapirayotgan bo‘lsangizlar hujjatingizni keltiringlar!)).

(27-sura, 64).

Aslida bu pay‘g‘ambarlik (yakkaxudolik), Qur’oni Karimdagi asosiy mavzudir.

# Xotima

Muqaddas kitob va Qur’oni Karimda bu va bundan boshqa yuzlab dalillar borki, ular Allohning yagona va Undan boshqa iloh yo‘q ekanida shubhaga o‘rin qolmaganini ta’kidlaydi. Muqaddas kitob shunday deydi:

"Ey Isroil tingla: Ilohimiz bo‘lgan Parvardigor — yagona Parvardigordir. Darhaqiqat, Alloh — yagonadir va Undan boshqasi yo‘qdir".(Markos Injili 12: 28-33).Qur’oni Karim ushbu haqiqatni quyidagi oyatida keltiradi:((Ayting: U Alloh — yagonadir)).(113-sura,1).Muqaddas kitob Allohning faqatgina yagona ekanini emas, balki, Uning yagona Yaratguvchi-Xoliq va yagona Xaloskor ekanini ham ta’kidlaydi."Meni bilishingiz va Menga iymon keltirishingiz hamda mening Tangri ekanimni bilishingiz uchun... Mendan avval tangri bo‘lmadi, mendan keyin ham tangri bo‘lmaydi. Mengina Parvardigorman! Mendan boshqa xaloskor yo‘qdir!"(Isaya 43:10-11).

(Markos Injili 12: 28-33).

Qur’oni Karim ushbu haqiqatni quyidagi oyatida keltiradi:

((Ayting: U Alloh — yagonadir)).

(113-sura,1).

Muqaddas kitob Allohning faqatgina yagona ekanini emas, balki, Uning yagona Yaratguvchi-Xoliq va yagona Xaloskor ekanini ham ta’kidlaydi.

"Meni bilishingiz va Menga iymon keltirishingiz hamda mening Tangri ekanimni bilishingiz uchun... Mendan avval tangri bo‘lmadi, mendan keyin ham tangri bo‘lmaydi. Mengina Parvardigorman! Mendan boshqa xaloskor yo‘qdir!"

(Isaya 43:10-11).

Bundan Iyso yoki Muqaddas ruh yoxud boshqalarning tangriliklari haqida aytilgan gaplarning na asosi va na dalili bordir. Ular Alloh yaratgan maxluqotlar bo‘lib, tangrilik xususiyatlari yo‘qdir. Ular na tangri va na tangrining tajallisidir va ularda na tangrilik mujassam bo‘lgan yoki tangrini shakllagan emaslar.

Muqaddas kitob va Qur’oni Karim eslatganidek, Allohga o‘xshagan biron narsa yo‘qdir!

Alloh, qilgan zalolatlari va boshqalarga ibodatlari tufayli yahudiylarga g‘azab qildi."U (yahudiy)larga Allohning g‘azabi kuchaydi".(Son: 25:3)Va Muso (alayhissalom) yahudiylarning oltin buzog‘ini parchalab tashladi.

"U (yahudiy)larga Allohning g‘azabi kuchaydi".

(Son: 25:3)

Va Muso (alayhissalom) yahudiylarning oltin buzog‘ini parchalab tashladi.

Boshqa tarafdan esa, yakkaxudolik gʻoyalariga eʼtiqod qilgan nasroniylar guruhi azob va quvgʻinliklarni koʻtarishga majbur boʻldilar. Chunki ular Allohning yaktoligini qabul qilib, Allohni yakto deya tushungan Iyso alayhissalom taʻlimotlarini buzishdan bosh tortgan hamda Polis qoʻlida yuzaga kelgan uchlik tangri bidʼatini inkor etishgan edilar.

Xullas, Alloh taolo Odam, Nuh, Ibrohim, Muso, Iyso va Muhammad va ulardan boshqa barcha paygʻambarlarni (Alloh ularga salavotu salomlar yoʻllasin!) odamlarni Allohga iymon keltirish, tenggi va sherigi boʻlmagan Allohga ibodatni xolis (samimiy) qilish uchun daʼvat qilishga yubordi.

Ularning bu yagona paygʻomi:

Haq iloh — yagonadir. Shu bois Uning oʻzigagina ibodat qilingiz!, edi.

Paygʻambarlar olib kelgan payʻgʻom yagona boʻlgani kabi, ularning dinlari ham yagonadir. Unday boʻlsa, u paygʻambar va rasullarning dini qaysi din?!

Ular paygʻomlarining asosi Allohga taslim boʻlishga asoslanadi. Bu, arab tilida ayni maʼnoni ifoda qilgan "Islom" soʻziga hamohangdir.

Qurʼoni Karim Islom Allohning butun paygʻambar va elchilarining haq dini ekanini taʼkidlagan. Bu qurʼoniy haqiqatni Muqaddas kitobda ham kuzatish mumkin.

(Inshaalloh, keyingi kitobimizda Muqaddas kitobdagi ushbu haqiqatni bayon qilishga harakat qilamiz).

Xotima oʻlaroq shuni aytamiz: biz (dunyo va oxirat azobidan) najot topish uchun ushbu paygʻomni qabul qilishimiz va unga chin va ixlos bilan iymon keltirishimiz kerak.

Lekin, shunday qilishimizning oʻzi yetarli emas!Balki, yana butun paygʻambarlar (jumladan, paygʻambar Muhammad sollallohu alayhi va sallam)ga iymon keltirib, ularning hidoyatiga ergashib, unga amal qilishimiz ham kerak.Shugina baxtli mangu hayot sari yoʻldir.

Balki, yana butun paygʻambarlar (jumladan, paygʻambar Muhammad sollallohu alayhi va sallam)ga iymon keltirib, ularning hidoyatiga ergashib, unga amal qilishimiz ham kerak.

Shugina baxtli mangu hayot sari yoʻldir.

Ey haqiqatni samimiylik bilan izlab, najotni suygan odam, shoyad siz bu haqda fikr qilsangiz, u haqda hozir — qachon kelishi maʼlum boʻlmagan ajaldan ilgari vaqtni qoʻldan boy bermay tushunib koʻrsangiz! Holbuki, oʻlimning qachon kelishini hech kim bilmaydi!

Idrok etuvchi aql va sodiq qalb bilan ushbu oʻta muhim va qatʼiy ish haqida qayta tushunib, fikr qilgandan soʻngra, siz Allohning sheriksiz va farzandsiz yagona ekanini aniq bilib, Uning yolgʻiz oʻziga iymon keltirib, ibodat qila olasiz hamda Muhammad ham Nuh, Ibrohim, Muso va Iyso kabi Allohning paygʻambari ekaniga iymon keltirasiz (ishonch hosil qilasiz).

Mana endi siz ham, agar xohlasangiz, ushbu jumlani aytishingiz mumkin:"Allohdan oʻzga haq iloh yoʻq va Muhammad Allohning paygʻambari, deb guvohlik beraman".

"Allohdan oʻzga haq iloh yoʻq va Muhammad Allohning paygʻambari, deb guvohlik beraman".

Ushbu jumla baxtli mangu hayot sari bosilgan ilk amaliy odimdir. U jannat davozalarining haqiqiy kalitidir.

Agar bu yoʻldan yurishga qaror qilgan boʻlsangiz, musulmon doʻstingiz yoki musulmon qoʻshningiz yoda oʻzingizga yaqin masjid yoki Islom markazidan yordam soʻrashingiz mumkin. Hatto, men bilan aloqaga chiqishingiz yoki maktublashishingiz men uchun katta baxt (va katta sharaf)dir.

"(Ey Muhammad sollallohu alayhi va sallam), Mening oʻz jonlariga (turli gunoh-maʼsiyatlar qilish bilan) jinoyat qilgan bandalarimga ayting: «Allohning rahmat-marhamatidan noumid boʻlmangiz! Albatta Alloh (Oʻzi xohlagan bandalarining) barcha gunohlarini magʻfirat qilur. Albatta Uning Oʻzigina magʻfiratli, mehribondir"."Sizlarga azob kelib, soʻngra yordam berilmay qolishidan ilgari (yaʼni, Allohning biron balo-qazosiga duchor boʻlmay turib), Parvardigorlaringizga qaytinglar — Unga boʻyinsuninglar!""Sizlarga oʻzlaringiz sezmagan holingizda toʻsatdan azob kelib qolishidan ilgari

Parvardigorlaringiz tomonidan sizlarga nozil qilingan eng go‘zal narsa — Qur’onga ergashinglar!"Qur’oni Karim (39-sura, 53-55-oyatlar).

"Sizlarga azob kelib, so‘ngra yordam berilmay qolishidan ilgari (ya’ni, Allohning biron balo-qazosiga duchor bo‘lmay turib), Parvardigorlaringizga qaytinglar — Unga bo‘yinsuninglar!"

"Sizlarga o‘zlaringiz sezmagan holingizda to‘satdan azob kelib qolishidan ilgari Parvardigorlaringiz tomonidan sizlarga nozil qilingan eng go‘zal narsa — Qur’onga ergashinglar!"

Qur’oni Karim (39-sura, 53-55-oyatlar).

Bu yerda boshqa narsa ham bor...

# So‘nggi eslatma:

Ushbu yagona risolani ongli va tafakkur bilan o‘qigan samimiy va jiddiy odam: Haqiqat nima? Xato nima? Qanday amal qilish kerak, deya savol berishi mumkin.Men, inshaalloh, kelgusi kitoblarimda ushbu va boshqa savollarni qalamga olaman.

Men, inshaalloh, kelgusi kitoblarimda ushbu va boshqa savollarni qalamga olaman.

Faqat yaxlit payg‘om ..... 1
Kitob mavzulari ..... 1
O‘qish oldidan savollar: ..... 1
Muqaddas kitob (Eski ahd)da Haq va Tanho bo‘lgan Alloh: ..... 2
Muqaddas kitob (Yangi ahd)da Haq va Tanho bo‘lgan Alloh: ..... 3
Xotima ..... 4
So‘nggi eslatma: ..... 6